IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 21 Issue 2 May 2026

XORAZMNING ILK O‘RTA ASR SHAHARLAR RIVOJLANISHI TA’SIRIDA IQTISODIY VA ETNIK-MADANIY MUNOSABATLAR

Raximova Asal Mahsud qizi
Urganch davlat universiteti Tarix yo‘nalishi 2-kurs magistranti
asalraximova14@mail.ru
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20249955

Annotatsiya. Mazkur maqolada Xorazmning ilk o‘rta asrlar davrida shaharlar rivojlanishining iqtisodiy hamda etnik-madaniy munosabatlarga ta’siri tahlil qilinadi. Shaharlarning savdo va hunarmandchilik markazlari sifatida shakllanishi, Buyuk Ipak yo‘li orqali hududlararo aloqalarning kengayishi ilmiy asosda yoritiladi. Tadqiqotda urbanizatsiya jarayonlari natijasida ichki va tashqi iqtisodiy integratsiyaning kuchayishi ko‘rsatib beriladi. Shuningdek, turli etnik guruhlar o‘rtasidagi madaniy almashinuv, diniy qarashlar va til unsurlarining o‘zaro ta’siri ochib beriladi.
Kalit so‘zlar: ilk o‘rta asrlar, shaharlar rivoji, urbanizatsiya, iqtisodiy munosabatlar, etnik-madaniy aloqalar, Buyuk Ipak yo‘li, savdo, hunarmandchilik, madaniy almashinuv.

Аннотация. В данной статье анализируется влияние развития городов Хорезма в период раннего Средневековья на экономические и этнокультурные отношения. Освещается формирование городов как центров торговли и ремесла, а также расширение межрегиональных связей через Великий шелковый путь на научной основе. В исследовании показано усиление внутренней и внешней экономической интеграции в результате процессов урбанизации. Кроме того, раскрывается культурный обмен между различными этническими группами, а также взаимовлияние религиозных представлений и языковых элементов.
Ключевые слова: раннее Средневековье, развитие городов, урбанизация, экономические отношения, этнокультурные связи, Великий шелковый путь, торговля, ремесло, культурный обмен.

Abstract. This article analyzes the impact of urban development in Khorezm during the early medieval period on economic and ethno-cultural relations. It examines the formation of cities as centers of trade and craftsmanship, as well as the expansion of interregional connections through the Great Silk Road on a scientific basis. The study highlights the strengthening of internal and external economic integration as a result of urbanization processes. In addition, it reveals cultural exchange among different ethnic groups, along with the interaction of religious beliefs and linguistic elements.
Keywords: early Middle Ages, urban development, urbanization, economic relations, ethno-cultural relations, Great Silk Road, trade, craftsmanship, cultural exchange.

Amudaryo o‘ng va so‘l sohili xududlari ajdodlarimiz turar-joylarda o‘rnashgan hayot va ijod bunyodkorligi natijasida erishgan zafarlarini yoritishda nazariy manba bo‘lib xisoblanadi. Darxaqiqat, mil. avv. VI asr so‘nggi choragida Janubiy Orolbo‘yi tekisligini urbanizatsion jarayonlarning milodiy X asrgacha qamrab olishi natijasida ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy munosabati rivojlanishida yuz bergan o‘zgarishlarni tarixi uzun. Janubiy Orolbo‘yi xududlarida urbanistik jarayonlar ta’sirida jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy munosabatlar rivojlanishi jarayonni yoritishdan oldin ajdodlarimizning mil. avv. IX asrgacha bosib o‘tgan tarixiy tajribasini eslash joiz.

Amudaryo o‘ng va so‘l sohili xududlari axoli tomonidan qoldirilgan turar-joylarda olib borilgan qazishma ishlari natijalari ushbu jamiyatning geografik manzarasini neolit va bronza davri axoli xo‘jaligini tasvir qilgan.

Mil. avv. IX-VIII asrlarda so‘l sohil xududlarida kechgan Amudaryo o‘ng sohilida ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy munosabatlar rivojlanish tarixi bronza davrida kechgan tarixiy jarayonlar natijalari asosida notekis rivojlanishi davom etgan. Xorazm ekspeditsiyasi xodimlari asarlarida Janubiy Oqchadaryo xavzasida Tozabog‘yob va Andronovo madaniyati ijodkorlari omuxtalashishi natijasida yangi xo‘jalik Yakke-parsan-2 Amirobod madaniyati nomi bilan ma’lum. Manzilgoh aholisi yog‘och ustunli yarim yerto‘la, ichki xususiyatini 20 ga yaqin uy-xonalari tasvir qilgan, ularni chuqurligi 20-30 sm. Aholi tabiiy resurslardan foydalanib, xo‘jalikni olib borishi jarayonida texnologik kashfiyot qilganlar, ya’ni bronza ashyosini eritib, hosil bo‘lgan quymadan turli vazifani bajaradigan mehnat qurollarni ishlab chiqib, yerga bo‘lgan munosabatni o‘zgartirganlar[1] .Tadqiqotchi fikricha, Yakke-Parsan axolisi mil. avv. IX-VIII asrda o‘troqlashgan. Nazarimizcha, Yakkaparsan-2, 14 manzilgohlar aholisi mavsumiy o‘troqlashgan. Mil. avv. VII asr boshida, Amudaryo suvi asosiy qismini Dovdon irmog‘i qamrab olishi natijasida axoli Sariqamishbo‘yi xavzasidagi Quyisoy balandligi atrofiga ko‘chishga majbur bo‘lgan. Sariqamishbo‘yi xududi geografik manzarani tasvir qilgan. Amudaryodan ajralib chiqqan Dovdon o‘zani Qoraqumni ikki qismga ajratib janubi-g‘arbiy xudud Quyisoy balandligi atrofilari qumtepaliklar oralig‘ida botiqlar suv xavzalariga aylangan, ularning soxil etaklari flora va faunani o‘z manfaatiga hizmat qildirgan. Yakkaparsan- 2, 14 axolisi yog‘och ustunli yarim yerto‘lada istiqomat qilgan chorvachilik xo‘jaligini olib borganlar. Sernam va serunum tekislikda uddaburon va epchillik bilan foydalanish maqsadida bronza ashyosidan turli vazifani bajaradigan mehnat qurollarini xo‘jalikda keng qo‘llaganlar, bu esa urbanistik jarayonlar ildizini vujudga kelishiga asos bo‘ldi[2].

G.V. Nikolskiy, D.V.Rudakov va D.Lebedov ma’lumotiga ko‘ra, Jonbos-4 ovchilari suv xavzalaridan ovlangan baliqlarni 86 % sazan, cho‘rtan va laqqa baliqlari tashkil etgan[3]. Shu bilan birga manzilgoh madaniy-qatlamidan to‘ng‘iz, bug‘u, xamda qushlar, toshboqa kosa, tuxumlari, jiyda danaklari olingan. Neolit davri urug‘ jamoalarining belgilab olgan kasbi-yo‘nalishlari eneolit davrida davom etganligi Shimoliy Oqchadaryo xududidagi Qamishli 1,2 manzilgohlari aholisi tomonidan olib borilgan, uy chorvachiligi, xilma-xil bezakli kulol idish-tovoqlar ishlab chiqarilishi iqtisodiy-etnik munosabatlarni olib borganlar. Jamiyatni boshqarish tizimida “Donishmand ona” raxnomalagida davom etgan. Turar-joylar qurilishida, texnologik o‘zgarishlar olib borilmagan, faqat mehnat qurollarida yangi tiplar kundalik faoliyatlarida qo‘llanilgan. Bronza davri jamiyatida ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda o‘zgarishlar yuz berganligi kuzatiladi. M.A.Itina tadqiqotlarida bronza davri axolisining kundalik faoliyatlarida erishgan natijalari aks etgan. Xususan, eneolit davri axolisining vorislari bronza davrida kundalik Xorazm vohasi shimoli-g‘arbida Ustyurt platosida o‘rnashgan neolit urug‘ jamoalari (Isatoy, Churuk, Kaskajal) mavsumiy chaylalarda istiqomat qilib, ularning kundalik taomnomasida Quloq, Saygoq, Jayron (dasht sharoitiga moslashgan) kabi xayvonlarni ovlab, etnik munosabatlarni bronza davrida olib borganlar.

Quyi Amudaryo tabiiy-iqtisodiy geografiyasini Qizilqumda davom ettirgan neolit davri urug‘ jamoalari va ularning olib borgan kundalik faoliyatlari Jonbos-4 manzilgohi aholisi singari

---

[1] Итина М.А. Поселение Якке-Парсан-2 //МХЭ-М.:Наука, 1963-№ 6-С. 167.

[2] Вайнберг Б.И. Памятники Куюсайской культуры //Кочевники на границах Хорезма-М.:Наука, 1979-С. 7-23.-С.60. Табла.

[3] Никольский Г.В, Радаков Д.В, Лебедов Д. Остатки рыб из неолитической стоянки ДЖанбаскала 4 //ТрХАЭЭ-М.:Наука, 1952. Т.1-С.205.

ovchilik, termachilik va loy kulolchiligi bilan shug‘ullanganlar. Ularning etnik munosabatlarni olib borish jarayonida iqtisodiy omillarni suv xavzalari organik dunyosi, jayron, bug‘u, to‘ng‘iz va yovvoyi otlarni ovlab ozuqa mahsulotlari taomnomasi geografik xolatini kengaytirgan[4]. Demak, Ustyurt platosi, Quyi Amudaryo va Zarafshon vodiysi quyi xududlari asosan pasttekisligida mavjud bo‘lgan tabiat xadyasidan keng foydalanganlar. Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, mil. avv. VII ming yillikda Qizilqumda istiqomat qilgan Charbakti xavzasida urug‘ jamoalari ishlab chiqarish xo‘jaligiga o‘tish davri bo‘lgan[5].

Xorazm ekspeditsiyasi xodimlari nashrlarida Amudaryo o‘ng va so‘l sohili hududlarini ijtimoiy manzarasini mil. avv. IX-VIII asrda Yakkaparson-2 manzilgohi yog‘och ustunli yarim yerto‘la shaklda, ichki tuzilishi 20 ga yaqin uy-xonalari 20-30 sm aylana, 40-50 sm chuqurchalar (yog‘och ustunlarga mo‘ljallangan), geografik o‘rni xajmi 2,5 ga mudofaa devorlar bilan o‘rab olinmagan. Xo‘jalik sohasida ishlatilgan mehnat qurollarida yangiliklardan biri bronza ashyosidan tayyorlangan maxsus “qoliplar” xizmat qilgan. Tadqiqotchi uy-xonalaridan shakli o‘rta darajada bo‘lgan xumlarni inobatga olib, ziroatchilik xo‘jaligiga qadam tashlaganini qayd qilgan[6].

Ko‘rinishi	Kavat-3 suyagi	Kukcha 15 suyagi	Kukcha 16 suyagi	Bayram-kazigan-3 suyagi	
Yirik shakli	26	26	2	7	Jami 61
Mayda shakli	132	145	36	38	340

Tozabog‘yob axolisida yengil tuyoqli xayvonlar ko‘p sonli bo‘lganligi jadval ma’lumotlaridan ma’lum[7]. Yakkaparsonliklar axolisi kundalik xayotida chorva mollarini parvarish manzarasi quyidagicha tasvirlaydi:

Ko‘rinishi	Jami	
Yirik shakli	447	
Mayda shakli	1082	
Og‘ir tuyoqli	271	

Mil. avv. IX-VII asrlarda Yakkaparsan-2 manzilgoxi axolisi parvarish qilishida yirik shoxli mollar miqdori 61 dan 447 taga ko‘paygan, mayda shoxli chorva esa 340 dan-1082 ga yetgan. Shu bilan birga, amirobodlik axoli otni parvarish qilishi (271 ga suyaklar) go‘sht, jun, teri mahsulotlari shu, bilan birga, aloqa-transport faoliyatini yo‘lga qo‘yganlar. Yakkaporsonliklar chorvachiligida mayda shoxli hayvonlar xamda yangi hayvonlarni qo‘lga o‘rgangan otlar suyaklari olinganligi qayd qilingan. Demak, ahamoniylar davlati Fors ko‘rfazida vujudga kelgan paytda (mil. avv. VI asr), ajdodlarimiz kundalik faoliyatlarida asosan chorvachilik xo‘jaligi asos bo‘lgan, aholining “qoq” yerlarida olib borgan ilk ziroatchiligi qo‘shimcha xo‘jalik sohasi bo‘lgan.

[4] Бижанов Е.Б. Каменнвй век Устюрта //Автореф на соис-е док.ист.наук.-Нукус, 1996-С.3-42.
[5] Бердимурадов А.Э. Мустақиллик йилларида ўзбек археологиясининг тараққиёти //Мустақиллик йилларида ўзбек археологияси -Самарқанд, 2016 № 5.
[6] Итина М.А.История степных племен Южного Приаралья (II начало I –тысячелетия до.н.э. //-М.:Наука, 1977. С. 160 ри.79.
[7] Итина М.А. Кўр.асар.-С. 185.Табл III.

V.N.Pilipko ma’lumotiga ko‘ra, Sariqamishbo‘yi shimoliy qismi geografik manzarasini hosil qilgan balandlikda axoli tomonidan qad ko‘tarilgan Odeydepe axolisi moddiy va ma’naviy madaniyati Marg‘iyona va shimoliy Baqtriya axolisi xo‘jaligi mahsulotlariga o‘xshashligini qayd qilgan. V.N.Pilipkoning fikr-mulohazasini nazarga olgan A.S.Sagdullaev Marg‘iyona va Baktriya bronza davri axolisi erishgan natijalari tashqi migratsiyalar munosabati bilan qo‘shni xududlari yoyilish markazini qayd qilgan. Aqchadaryo xavzasi xududida bronza davri axolisi asosiy turmush tarzini olib borishiga yarim yerto‘lalar imkon bergan, ularning egallagan maydoni 109-129, 132-140 kv.m. Iqtisodiy rivojlanishining asosi moddiy ashyolar hisoblanadi. M.A.Itina qayd qilishicha, voha aholisi ma’naviyatida mil. avv. II ming yilliklar o‘rtalariga qadar dehqonchilik madaniyatiga oid ma’lumotlar kuzatilmaydi. M.G.Vorob’eva ma’lumotlariga e’tibor bergan M.Mambetullaev Xumbuztepa axolisi xumbuzlarda olov yordamida pishirilgan qo‘lda yasalgan kulolchilik san’ati tarixiga oid idish-tavoqlarni (oshxona, katta xajmli xumlar) ishlatilishi Janubiy Turkmaniston va Shimoliy Baqtriya aholisi guruhlari faoliyatiga bog‘laydi.

Quyi Amudaryoning bronza davrida o‘ziga xos xususiyati Eneolit davri axolisi xo‘jalik an’analari ta’siri sharoitida moslashib, notekis rivojlanish davom etgan. Xususida bronza davri madaniyatlarida yuz bergan o‘zgarishlar maxalliy axoli suvyorganlik va Tozabog‘yobliklar faoliyatida yuz bergan o‘zgarishlar bizning nazarimizcha mahalliy aholi tomonidan asosan “Qayr” yerlarda ziroatchilikni olib borganlar. B.V.Andrianov fikricha Jonbos-Kukcha xududlarida o‘rnashgan axoli, sun’iy sug‘orma dexqonchilikni 7x7, 10x10, shaklda Oqchadaryo irmog‘idan chiqarilgan ariqlar orqali dalalarni sug‘organ. Tadqiqotchi sun’iy sug‘orma dexqonchilik madaniyati IX-VIII asrlarga mansub bo‘lganligini takidlaydi. Xorazm vohasi chegaralarida joylashgan chorvadorlar madaniyati bilan ilmiy tadqiqotlar olib borgan B.I.Vaynberg Ko‘zaliqirning me’moriy uslubda qurilishi Baktriya-Marg‘iyona -Parfiya moddiy madaniyati bilan o‘xshashligini qayd etib, Quyi Amudaryo xususida janubiy axolini ko‘chib kelishiga asos emasligini aytib o‘tadi.

O‘rta Osiyo xaritasida madaniy-xo‘jalik markazlar janubda joylashganligini tadqiqotchi e’tiborga olmagan. Masalan, Surxondaryo O‘zbekistonning janubida joylashgan issiq xudud hisoblanadi, bronza davridan o‘troq va sun’iy sug‘orilish inshootlari yordamida dexqonchilik va binokorlik bilimini Sopollitepa axolisi ijodidan ma’lum. Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra mil. avv. X-VIII asrlar bronzadan ilk temir davriga o‘tish davri bo‘lgan. Lekin bu tarixiy ma’lumot Ustyurt, Quyi Amudaryo va Zarafshon xususida istiqomat qilgan axoli kundalik faoliyatida ko‘zga tashlanmaydi.

Xulasa sifatida shuni aytish mumkinki, Xorazmning ilk o‘rta asrlar davrida shaharlar rivoji mintaqaning iqtisodiy va etnik-madaniy taraqqiyotida muhim omil bo‘lib xizmat qilgan. Urbanizatsiya jarayonlari natijasida shaharlar savdo va hunarmandchilik markazlariga aylanishi ichki va tashqi iqtisodiy aloqalarning kengayishiga, bozor tizimining shakllanishiga hamda ishlab chiqarishning ixtisoslashuviga olib kelgan. Buyuk Ipak yo‘li orqali amalga oshirilgan savdo munosabatlari esa Xorazmni turli hududlar bilan bog‘lab, uning iqtisodiy salohiyatini oshirgan. Shu bilan birga, shaharlarning rivojlanishi etnik va madaniy jarayonlarga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatib, turli xalqlar va qabilalar o‘rtasida faol madaniy almashinuvni yuzaga keltirgan. Natijada diniy qarashlar, til va urf-odatlar o‘zaro uyg‘unlashib, o‘ziga xos madaniy sintez shakllangan. Umuman olganda, Xorazm shaharlarining ilk o‘rta asrlardagi taraqqiyoti mintaqaning nafaqat iqtisodiy, balki etnik-madaniy jihatdan ham yuksalishiga zamin yaratgan va uning tarixiy rivojida muhim bosqichni tashkil etgan.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Бердимурадов А. Э. Мустақиллик йилларида ўзбек археологиясининг тараққиёти // Мустақиллик йилларида ўзбек археологияси. – Самарқанд, 2016. – № 5.Бердымурадов А. Е. Развитие узбекской археологии в годы независимости // Узбекская археология в годы независимости. – Самарканд, 2016. – №5.
2. Бижанов Е. Б. Каменный век Устюрта: автореф. дис. ... д-ра ист. наук. – Нукус, 1996. – С. 3–42.
3. Вайнберг Б. И. Памятники Куюсайской культуры // Кочевники на границах Хорезма. – М.: Наука, 1979. – С. 7–23.
4. Итина М. А. История степных племен Южного Приаралья (II – начало I тыс. до н. э.). – М.: Наука, 1977. – 160 с.
5. Итина М. А. Поселение Якке-Парсан-2 // МХЭ. – М.: Наука, 1963. – № 6. – С. 167.
6. Итина М. А. Указ. соч. – С. 185. – Табл. III.Итина М. А. Указ. сч. – С. 185. – Табл. III.
7. Никольский Г. В., Радаков Д. В., Лебедев Д. Остатки рыб из неолитической стоянки Джанбаскала-4 // Тр. ХАЭЭ. – М.: Наука, 1952. – Т. 1. – С. 205.